

## INGLIZ TILIDA VAQT KONSEPTUAL METAFORASINING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10813374>

**Ibragimova Muxarram Isaqovna**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

998979984722 [imuxaram@gmail.com](mailto:imuxaram@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilida vaqt konseptual metaforasi va olimlarning vaqt ifodalovchi til birliklariga ko'ra, munosabtalari yoritilgan. Shuningdek, vaqtning lingvistik va falsafiy kategoriya sifatidagi ifodasi misollar asosida ochib berilgan.

### Kalit so'zlar

vaqt tushunchasi, hozir, o'tmish, kelajak, geometrizatsiyasi

### Аннотация

В этой статье рассматривается концептуальная метафора времени на английском языке и отношения ученых в соответствии с языковыми единицами, представляющими время. Также на примерах раскрывается выражение времени как лингвистической и философской категории.

### Ключевые слова

понятие времени, настоящего, прошлого, будущего, геометризация

### Abstract

This article deals the conceptual metaphor of time in English and the attitudes of scientists according to the units of language that time represents. Also, the expression of time as a linguistic and philosophical category is revealed on the basis of examples.

### Keywords

concept of Time, Present, Past, Future, geometrization

Zamonaviy ilm-fanda vaqt tushunchasi quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi qayd etilgan: oqim, bir o'lchovlilik, uzlusizlik, bir yo'nalishli, cheksizlik, tartiblilik, mutlaqlik, ochiqlik, o'lchovlilik, voqealar bilan to'ldirish va boshqalar. Dastlab Nyuton va uning izdoshlarining klassik mexanikasida vaqt tushunchasini uchratamiz, keyinchalik bu tushuncha olimlar tomonidan kengroq o'rganilib, uning xususiyatlari tadqiq etila boshlagan.

Vaqtning falsafiy kategoriysi o'tmish, hozir va kelajakni tashkil etib, ularga asoslangan munosabatlarning birligi nuqtai nazaridan borliqning namoyon bo'lishini "ertaroq", "kechroq", "bir vaqtning o'zida" ro'y berishini ifodalaydi. Vaqt dinamik va statik xususiyatga ega bo'lib, statik kontseptsiyaga ko'ra, o'tmish, hozir

va kelajakdagi voqealar haqiqiy va bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishini anglatadi. Dinamik kontseptsiyasiga ko'ra, faqat hozirgi voqealar real sodir bo'layotgan vaqt; o'tmishdagi voqealar real sodir bo'lgan, lekin hozir mavjud emas va kelajakdagi voqealar real sodir bo'ladi, ammo hozir sodir bo'limganligini bildiradi.[1:101].

Vaqt o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir, ularsiz vaqt bo'lmaydi. V.P. Kazarianning fikricha esa, vaqt o'zgarish bilan bir xil emas. Bunda vaqtning nisbatan mustaqil, ya'ni aniq nima va qanday o'zgarishiga bog'liq emasligi ko'rindi [2:108]. Vaqt muammosiga o'xshash yondashuv fizikada ko'rib chiqiladi. Shuningdek, vaqt tushunchasining o'zgarmas jihatlaridan biri voqealarni o'tmish, hozir va kelajakka bo'lish bilan bog'liq. Biroq, vaqtning biron bir fizik nazariyasida o'tmish, hozir va kelajak yo'q. Faqat hozirgi voqealar mavjud deb qaraladi [2:33,48]. D.Maxovikovaning fikricha, "Hozir" deb qabul qilingan ma'lum bir lahzadagi voqealarga kelsak, avvalgi voqealar "o'tmish", keyingi voqealar "kelajak" bo'ladi. Agar biz boshqa bir lahzani olsak, lisoniy manzara o'zgaradi va unga nisbatan "o'tmish" va "kelajak" saf tortadi. Bu tilning grammatik va leksik vositalar bilan ifodalangan vaqtini o'tmish va kelajakka ajratish nuqtasi bo'lgan nutq yoki kontseptualizatsiya momentiga yo'naltirilgan vaqtini lingvistik tasvirlashda aks etadi[3.].

Vaqt o'tmish, hozir, kelajakning birligi ekanligiga asoslanib, unda davomiylik, oqim, ochiqlik xusuiyatlari kuzatiladi. Vaqtning davomiyligi bugungi kunning mavjudligi va ertaning borligida aks etadi. Vaqt oqimi, yo'nalishi shundan iboratki, kelajakdagi voqealar hozirgi voqealarga, hozirgi voqealar o'tmish voqealariga aylanadi. Vaqt haqidagi falsafiy ta'limotlarda, ularning qadriyat yo'nalishiga ko'ra, vaqtning ushbu uchta tomoni namoyon bo'lishi (o'tmish, hozir, kelajak) har xil ahamiyatga ega: masalan, kelajak birinchi o'ringa chiqadi, hozirgi va o'tmish soyada qoladi [4:15-16]. Zamonaviy fizikada vaqtning barcha daqiqalari bir xil mavjudlik holatiga ega, ularni "hozir, o'tmish, kelajak" tushunchalari bilan tavsiflash mumkin emas. Ushbu jihat "geometrizatsiyasi" deb nomlangan [2:108-109].

Vaqt o'tishining inkor etilmaydigan dalili - bu insonning individual tajribasida uni idrok etish haqiqatidir. A.Anisov ta'kidlaganidek, odam vaqtini ikki shaklda o'ylaydi: bunda birida pauzalar va to'xtashlar qayd etiladi, ikkinchisida harakat va shakllanish oqimi ifodalananadi. "Vaqt juda sekin o'tmoqda", "vaqt suvdek o'tib ketdi" va hokazo kabi iboralarni ishlatib, odam o'ziga, ma'lum bir davrda vaqtini idrok etishiga murojaat qiladi [4:15-17]. Shu bilan birga, vaqt sub'ektning holatiga qarab qanchalik farq qilmasin, tashqi ob'ektiv voqelik fenomeni sifatida to'xtovsiz vaqt oqimini idrok etish haqiqati o'zgarishsiz qoladi.

Vaqt tartiblash xususiyatga qodir. Vaqtsiz dunyo - bu "oldin" ham, "keyin" ham bo'lmanan tartibsizlikni aks ettiradi. Ammo bir voqealarni boshqasidan oldin (yoki keyinroq) sodir bo'lganligi ma'lum bo'lgach, vaqt paydo bo'ladi [4:6-10]. Shuningdek, vaqt voqealarni yoki aniqrog'i, aniq voqealar sodir bo'lgan vaqtini "oldin" yoki "keyin" munosabatlar bilan tartibga soladi.

Vaqt o'lchovini belgilash ong bilan bog'liqdir. Inson miyasi cheklangan vaqt oralig'ida parallel ravishda til orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga va o'zgartirishga qodir. Kontseptual asosga ega bo'lgan murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida tilning o'ziga xos xususiyati bir tomondan to'g'ridan-to'g'ri lingvistik ma'lumotlar bilan shug'ullanadi va boshqa tomondan ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar haqidagi bilimlarni til shaklida ramziy vosita sifatida ifodalshga xizmat qiladi. [5:173].

S.D. Katznelsonning so'zlariga ko'ra, ong faoliyati, albatta, til faoliyati bilan birga keladi, til shakllari uning paydo bo'lish bosqichida fikrlar bilan birga keladi, nutq fikrlash mexanizmlari tomonidan amalga oshiriladigan murakkab yagona nutq fikrlash jarayonini shakllantiradi [6:110, 115]. Turli leksik birliklar va grammatik formulalar ong tuzilmalarini ifodalaydi va mustahkamlaydi. Asosiy ma'lumotlar ongda turli darajadagi murakkablik va mavhumlik tushunchalari shaklida, "yangi og'zaki shakllarni talab qiladigan" yangi xususiyatlar bilan to'ldirilgan aqliy tuzilmalar shaklida saqlanadi [7: 27].

Til belgisi sifatida so'z ko'p funksionaldir, shuning uchun uni nutq faoliyatida va ma'lum bir til birligi ortidagi "aqliy konstruktsiyalarni manipulyatsiya qilish jarayonida" foydalanish uning til tizimida ko'rsatilganidan farq qiladigan yangi ma'nolarga ega bo'lishi mumkinligini bildiradi. Shuningdek, so'z "nutqda bir nechta tushuncha" bilan tavsiflanadi, ammo bu uning tizimli ma'nosini tarkibiy qismlarini aktuallashtirish natijasi emas, ya'ni kontseptsiyani tegishli bilim tuzilishi va uning boshqa bilim tuzilmalari bilan aloqasi sifatida faollashtiradi, zarur ma'noni shakllantirish va tushunishni ta'minlaydi [8: 220, 223]. So'zning ma'nosini uning kontekstual ishlatilishiga qarab o'zgarishi mumkin, bunda lug'atdagi birlik polisemiya munosabatlariga asoslanganligini ko'rsatadi [9: 361].

So'z o'z ma'nosini bilan ob'ekt yoki hodisa haqidagi ensiklopedik ma'lumotlarning faqat bir qismini yetkazadi, tegishli kontseptsiyaning mazmuni va uning individual eng muhim va vakillik xususiyatlari haqida umumiylashtiradi. Butun kontseptsiya aqliy tuzilish sifatida, xotira va fikrlash birligi sifatida asosiy fon bilim bo'lib, uning boshqa tushunchalar bilan ko'p qirrali munosabatlari doirasida har qanday so'zni, har qanday til birligini tushunishni ta'minlaydi. Shuningdek, vaqtning umumiylashtirish sifatida vaqt segmentlarining har qanday

nomlari uchun asosiy bilim zarurdir, bu esa o'z navbatida operatsion vaqt tushunchalarini aks ettirishda zamin bo'ladi [3.]. Ingliz tilida vaqt ifodalovchi til birliklari quyidagilardir: year, month, day, night, hour va boshqalar.

Vaqtning to'g'ridan-to'g'ri leksik birligiga qo'shimcha ravishda, vaqt xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri leksik nominatsiya hosil qiluvchi vositalarining asosiy qismi vaqt segmentini ifodalovchi va vaqt o'lchov birliklarining nomlarini ko'rsatadigan vaqt komponentiga ega bo'lgan otlardir; second, minute, hour, week, fortnight, year, quinquennium, decade, century va boshqalar; kun qismlari nomlari: morning, day, evening, night, daybreak, dawn, dusk, twilight kabi; hafta va oy kunlari nomlari: Monday ... Sunday, January ... December; fasllarning nomlari: aeon, era, age, epoch; rivojlanishning geologik va tarixiy davrlari nomlari: aeon, era, age, epoch, etc.; noaniq vaqt segmentlarining nomlari: moment, instant, period, interval, etc; yosh xususiyatlarining nomlari: childhood, youth, adulthood, senium; newborn, teenager, adolescent, octogenarian kabi.; ovqatlanish va bayramlarning nomlari: breakfast, lunch, dinner, New Year, Christmas, Thanksgiving Day va boshqalar.

Ingliz tilida vaqt kontseptual metaforalarni quyidagicha: vaqt chegaralangan makon, vaqt aniq makon, vaqt boshlang'ich nuqta/manzil, vaqt konteyner, vaqt harakatlanuvchi kuzatuvchi, vaqt chegaralangan makon va harakatlanuvchi kuzatuvchi sifatida ko'rildi. Qizig'i shundaki, xuddi shu kontseptual metaforalar turli tillarda mavjud. Chunki vaqt kontseptual metaforalar til universiyalisi hisoblanadi.

"Metafora" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "o'tkazish" degan ma'noni anglatadi. "Morpheme meta "o'tkazish, ko'chirish" degan ma'noni anglatadi va morphème pherin ingliz tilida "belgini bildirish" deb tarjima qilingan (Charteris-Black, 2004). Ushbu etimologik ma'noga ko'ra, metafora qandaydir o'zgarishlarni etkazishni anglatadi. An'anaga ko'ra, u bir-biridan farq qiladigan ikkita ob'ektni taqqoslash uchun ritorik vosita sifatida tan olingan. Biroq, Lakoff va Jonsonning (1980) ishlari va metafora bo'yicha tadqiqotlar metaforaga bo'lган qiziqishni kuchaytirdi. Ilmiy tadqiqotlar metafora kontseptual va kognitiv asoslarga ega ekanligini ko'rsatadi: metaforaning mohiyati bir tushunchaning boshqasiga nisbatan o'zgarishidan iborat. Jarayon deganda bir tushunchadan ikkinchisiga o'tishni tavsiflovchi xaritalarning tizimli to'plami tushuniladi. Masalan, kontseptual metafora vaqt ob'ekt sifatida, soha manbasi, ob'ekt, xaritaning maqsadi, vaqt dagi manba, xaritadagi ma'lumotlar kabilarni anglatadi. Shuningdek, manba domenining o'zaro bog'liqligi bo'lган ob'ektga egalik qilish vaqtga, ob'ektni o'zgarish vaqtiga to'g'ri keladi va hokazo. Lakoff va Jonson tomonidan taklif

qilingan metaforaning bu ta'rifi metafora tushunchasini yoritishda imkoniyat yaratadi. Metaforalar an'anaviy tilshunoslikda to'rt usulda amalga oshiriladi. Metaforalar nutqda keng tarqalgan bo'lib, muloqot ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi.

S.Hamdi tadqiqotida quyidagi kontseptual metafora yordamida vaqtini kontseptsiyalashtirish aniqlangan [10: ]:

- TIME AS SPACE.
- TIME AS A MOVING ENTITY.
- TEVIE AS A BOUNDED SPACE
- TEVIE AS A CONTAINER.
- TIME AS AN EXTENSION.
- TEVIE AS A LOCATION.
- TEVIE AS A STARTING POINT/ENDPOINT.
- TEVIE AS A BOUNDED SPACE AND A MOVING ENTITY
- TEVIE AND OBSERVER AS MOVING IN THE SAME DIRECTION.
- TEVIE AS AN OBJECT.
- TEVIE AS A POSSESSION.
- TEVIE AS AN OBJECT THAT CAN BE GIVEN.
- TIME AS AN OBJECT THAT CAN BE TAKEN.
- TEVIE AS AN OBJECT THAT CAN BE SHARED.
- TEVIE AS AN OBJECT SUBJECT TO LOSS.
- TIME AS AN OBJECT THAT ONE CAN LOOK FOR.
- TEVIE AS AN OBJECT THAT IS NEEDED.
- TEVIE AS AN OBJECT COLLOCATING WITH US.
- TEVIE AS A QUALIFIABLE OBJECT.
- TEVIE AS A PRECIOUS OBJECT.
- TEVIE AS A PERSON.
- TIME AS MONEY.
- TEVIE AS A LIMITED RESOURCE.

Vaqt inson tajribasining muammoli jihatlaridan biridir. Sokrat davrlardan beri olimlar vaqtning tabiatini va tuzilishini o'rganib kelishadi. "La Psychologie du Temps" (1956) asarida Fress inson hayotidagi vaqtning ahamiyatiga oydinlik kiritib, tug'ilishdan o'limgacha inson tanasi vaqt ta'sirida bir necha o'zgarishlarga uch rashini ta'kidlaydi. Olim mavjud sharoitlarimiz doimo o'zgarib turishini va vaqt bizni turli yo'llar bilan o'zgartirishini tushuntiradi, chunki bizning mavjudligimiz kecha va kunduz ritmlari bilan tuzilgan va shakllangan. Vaqt - bu aniq, ammo aniqlash qiyin bo'lgan tushuncha. Keshavmurti (1991) "vaqt paradoks,

biz buni bilganga o'xshaymiz, ammo biz buni deyarli aniq bilmaymiz, deya e'tirof etadi. Keshavmurti Vaqt nima? deya savol qoyadi va bunga o'zining quyidagi nazariyasini keltiradi: hech kim mendan nima ekanligini so'ramasa, nima ekanligini bilaman; lekin buni mendan so'rangan kishiga tushuntirmoqchi bo'lsam, bilmasligimni tushunaman. Shunga qaramay, men buni bilaman, deb ishonch bilan ayta olaman: agar hech narsa o'lmasa, o'tgan vaqt bo'lmaydi va agar hech narsa kelmasa, keljak vaqt bo'lmaydi va agar hech narsa bo'lmasa edi hozir hozirgi vaqt bo'lmaydi. Darhaqiqat, vaqt tushunchasini ifodalsh qiyin, shuning uchun tilimizda vaqtga oid metaforalar uni tushunishga imkoniyat yaratadi deb o'ylaymiz.

Vaqt-bu dunyoning lingvistik va ilmiy manzaralari asosida yotgan mavhum tushuncha va hodisa. Ko'pgina olimlar va faylasuflar ushbu hodisani quyidagicha o'rganishga harakat qilishdi: vaqtning tabiat, uning xususiyatlari, vaqt umuman mavjudmi, nima uchun u faqat bitta yo'nalishda harakat qiladi va hokazo. Birinchi bo'lib, vaqtga Aflatun amal qilgan; faylasuf vaqt ni moddiy jismlar va jarayonlardan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan harakatlanuvchi abadiylik tasviri sifatida tushungan. Aristotel vaqtning mavjudligi faqat ong tufayli mumkin deb hisoblagan. Bu ikki nuqtai nazar fizika va tabiatshunoslikda o'z aksini topgan: I. Nyuton vaqt o'tmishdan keljakka oqib o'tadigan mustaqil oqim ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, Leybnits o'z asarlarida vaqt atrofdagi voqelikni idrok etishning sub'ektiv usuli ekanligini yozgan. Zamonaviy fizikada XX asrdan boshlab vaqt ni yopiq tizimning moddiy sharoitlariga bog'liq va ma'lum metrik xususiyatlarga ega bo'lgan hodisa sifatida tasavvur qilish rivojlandi. Vaqt o'tishi sharoitga qarab sekinlashishi yoki tezlashishi mumkin. Vaqt fenomenining murakkabligi va uning dunyo manzarasidagi muhim roli uning boshqa fanlarda ko'plab talqinlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu mohiyatan fizika bilan bog'liq bo'limgan tushunchalar qisman vaqtning jismoniy xususiyatlariiga asoslanadi. Shuningdek, masalan, fizikada o'rganilgan vaqt va uning xususiyatlari inson tilida aks etadi. Lingvistik vaqt atrofdagi voqelikni dunyoning lingvistik manzarasiga aylantirishda ishtirok etadi va til, inson faoliyati va ob'ektiv voqelik o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Vaqt tushunchasining ahamiyati psixologiya, sotsiologiya, biologiya va tilshunoslik kabi bir qancha sohalarda tan olingan. Masalan, britaniyalik sotsiolog Barbara Adams vaqt jarayon, xotira, ijtimoiy nazariya uchun asos bo'lib xizmat qiladi deya ta'kidlaydi.

Shuningdek, ingliz tiliga oid tadqiqotlar metaforalarning kognitiv holati uchun bir tilli nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, vaqt konseptualizasiyasini ifodalovchi yangi birliklar individuallikni ta'minlash uchun

juda zarur. Masalan, ingliz tilida so'zlashuvchilarning pul bilan ishslashga xos bo'lgan "sarflash" va "tejash" kabi iboralarni ishlatib, vaqtga murojaat qilish uchun pul domenidan foydalanishi kabilar universallik hosil qiladi deya olmaymiz, bunday iboralar boshqa tillarda mavjud emas, yoki ular boshqa metaforalar bilan ifodalanadi. Time is money. O'zbek tilida Vaqt oltinga teng, jumlesi qisman yaqin bo'lsada, har bir til qo'llovchilari tomonidan mazmunan kengayishi mumkin.

Vaqt muammosi har doim insonning e'tiborini jalb qilgan, chunki bu uning mavjudligi muammosi bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Falsafa va fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan vaqt ilmiy bilim va ma'naviy madaniyatning turli sohalarida: tabiiy va aniq fanlarda, mifologiyada, ilohiyotda, san'at va adabiyotda, tabiiy til grammatikasida, kundalik ongda aks etadi. Atrofdagi dunyoda sodir bo'layotgan yoki sodir bo'lmaydigan o'zgarishlardan qat'i nazar, biz har doim vaqt o'tishini bilamiz. Vaqtning mohiyatini umumiylashtirishda haqiqiy vaqtning moddiy dunyoning mavjudligi shakli, kontseptual vaqtning inson ongida vaqtinchalik tushunchalar shaklida aks ettirish shakli va lingvistik vaqtning ushbu tushunchalarni tilda ifodalash shakli sifatida ajratish mumkin. Demak, vaqt konseptosferasining lingvistik xususiyatlari o'z tadqiqini kutayotgan masalalardandir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Молчанов Ю. Проблема времени в современной науке. - М.: Наука, 1990. - 136 с.
2. Казарян В.П. Философские проблемы пространства и времени в естествознании// Философия естественных наук / Под ред. С.А.Лебедева. - М.: Академический проспект, 2006. - С.105-166.
3. <http://www.dslib.net/germanskie-jazyki/leksicheskie-sredstva-konceptualizacii-vremeni-v-sovremennom-anglijskom-jazyke.html>
4. Анисов А.М. Свойства времени // Логические исследования. Вып. 8.-М.: Наука, 2001.-С. 5-25.
5. Кобрин Н.А. Когнитивная лингвистика: истоки становления и перспективы развития // Когнитивная семантика: Мат-лы Второй Междунар. школы-семинара по когнитивной лингвистике, 11-14 сентября 2000 г. / Отв. ред. Н.Н. Болдырев: в 2 частях. Ч. 2. - Тамбов: Изд-во Тамбовского университета, 2000.-С. 170-175.
6. Кацельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. - Л.: Издательство «Наука», 1972. - 216 с.

7. Болдырев Н.Н. Концептуализация функции отрицания как основа формирования категории // Вопросы когнитивной лингвистики. - 2011а. № 1. -С. 5-14.
8. Болдырев Н.Н. Проблема значения и смысла языковых единиц в контексте познавательных процессов // В пространстве языка и культуры: Звук, знак, смысл: сб. ст. в честь 70-летия В.А. Виноградова. - М.: Языки славянских культур, 2010. - С. 219-231.
9. Рахилина Е.В. Когнитивный анализ предметных имен: семантика и сочетаемость. - М.: Русские словари, 2000а. - 400 с.
10. Sondes Hamdi. Conceptual metaphors of time in english and in arabic: a comparative cognitive study. These. -Quebec 2008.